



## ZULFIYA LIRIKASIDA SADOQAT MANZARALARI

*Xalova Maftuna Abdusalamovna,  
Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti;  
Qayumova Gulsanam Sadridin qizi,  
Samarqand davlat chet tillar instituti 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada o'zbek she'riyatining malikasi shoira Zulfiya badiiy olami haqida ma'lumot berilgan. Shoiraning betakror lirik olamiga munosabat bildirilgan. Shoira Zulfiya lirikasida sadoqat tasviri va uning o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** vafo, sadoqat, poetik olam, lirik kechinma, qahramon tabiati, ijodiy hamkorlik, lirik tasvir, tahlil, talqin.

Vafosi, sadoqatining ramzi bilan o'zbek onasi, o'zbek ayoli uchun ibrat maktabini yaratgan she'riyatimiz malikasi Zulfiya sevimli yor, mehribon ona va shu bilan birgalikda hassos shoiradir. Zulfiya deganda ko'z oldimizda o'zbek ayollari uchun ibrat maktabi yaratilaveradi. Zulfiyaning ijodiy barkamolligini XX asr o'zbek she'riyatining gultoji desak adashmagan bo'lamiz.

Biz, avvalo, Zulfiyaning hayotiga nazar tashlaganimizda, uning oilasi adabiyot olamiga daxldor ekaniga guvoh bo'lamiz. Uning turmush o'rtog'i Hamid Olimjon o'zbekning yuragi bo'lgan shoirlardan edi. Ular ikkalasidan o'zbek adabiyoti uchun nodir asarlar meros qoldi. Ular hamkorlikda vafoni, sadoqatni obrazli obrazli kashf etdilarki, bu umrboqiylik kasb etdi. Zulfiya shunday dedi: "Yashirib o'tirmayman Hamid Olimjon ilk ko'rishuvlardan oq ko'zimdan ko'nglimga o'tdi. Men juda yosh hissiyotim bilan uning keng qalbi, ulkan iqtidorini tuydim". Zulfiya Hamid Olimjon bilan ijodiy davralarda birga o'tirgan, iste'dodli shoirning she'rlarini tinglagan. Balki, ularning tanishib oila qurishiga mana shu muhit ta'sir qilgandir. Zulfiya bilan Hamid Olimjonning birga yashashi ularning ijodiy hamkorligi uzoq davom etmadi.

Zulfiya atigi Hamid Olimjon bilan o'n yil tinch, totuv, birgalikda hamfikir, hamnafas bo'lib yashadi. U Hamid Olimjon bilan o'tkazgan shirin onlarini quyidagicha xotirlaydi: "Men yayrab yashadim. Inson chinakam sevib sevilganida atrofdagi barcha qiyinchiliklar ushoq bo'lib ko'rinadi. To'rt fasl ham bahor bo'lib ko'rinadi". Ushbu so'zlardan bilishimiz mumkin, Zulfiya sevgan kishisi bilan baxtli edi. Sevgan insonning ko'ziga butun borliq go'zal ko'rinadi. To'rt fasli bahorga aylanadi.

Qalbimga yozilgan muhabbat so'zi  
Uyimni chulg'adi mening har minut.



Lekin ishondimki, sen so‘z ochmasang  
Shu dardda o‘lsam ham etaman sukut.

Shu o‘rinda biz Zulfiyaning naqadar sabr - toqatliligini, muhabbatiga, sevgisiga, sodiqligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Zulfiya qalb kuychisi edi. U doimo qalb torlarini tebratar, bu torlardan muhabbat, vafo kuylari taralib turar edi. Zulfiya ishqdan masrur, hayoti bir maromda davom etayotgan bir paytda Hamid Olimjonini yo‘qotdi. Zulfiya Hamid Olimjonning o‘limi oldidan aytgan so‘zlarini quyidagicha xotirlaydi: “Men o‘sha kuni falokatni eshitib, jonimga o‘t ketib kasalxonaga chopdim. Bir lahzaga kechikibman. Keyin menga birga bo‘lgan do‘stlari gapirib berishdi. U o‘sha lahzada boshida turgan Usmon Yusupovga og‘riq bilan arang bo‘lib-bo‘lib:  
- Usmon aka vrachlar ilojini qilishsa...yordam berishsin! axir, hali ish juda ko‘p...yoshman! - degan ekan.

Hamid Olimjon eng so‘nggi daqiqalarigacha shunday bo‘lganiga, aynan shunday deb aytganiga men juda ishonaman”. - deydi Zulfiya. Haqiqatdan ham iste‘dodli shoir yashashni sevgan. U she‘riyat uchun, xalqi uchun, farzandlari va sevgan yori uchun ham yashashni istagan. Hamid Olimjon Zulfiyaning qanoti edi. Go‘yoki Zulfiya usiz qanoti yo‘q qushga o‘xshab qoldi:

Yashash sening haqqing dedim,  
Kechir, qoldim g‘aflatda.  
Yo‘q ediku bo‘lmoq mahrum,  
Bizning ilk munis ahdda.

Zulfiya taqdirning bunday kuchli zarbasidan esankirab qoldi. Lekin u tezda o‘zini tutib oldi. Hamid Olimjon uchun han ijod qila boshladi. Uning xayoli Hamid Olimjon orzu-istaklari bilan yashay boshladi. Zulfiyaning she‘rlarida, uning gapirgan gaplarida Hamid Olimjon yashaydi. Uning yoriga bo‘lgan ishonchi, unga bo‘lgan e‘tiqodi Zulfiyani shu darajaga yetkazdi. Zulfiya she‘rlarida sabotli ishqni, yurakda g‘uncha ochgan otashin muhabbatni kuyladi. Hamid Olimjon bilan o‘tkazgan shirin onlarini she‘rlariga olib kirdi. Qalblarda g‘uncha ochayotgan muhabbatni o‘z ishq ruvida tarbiyalashga undadi. Mana shundan bo‘lsa kerakdirki, Zulfiyaning she‘rlarini kitobxon sevib mutoala qiladi. U faqat iste‘dodli shoir ishq bilan yashadi, balki mana shu ishq Zulfiyaning Zulfiya darajasiga yetmog‘iga zamin tayyorlagandir. Hamid Olimjonni Zulfiya bolalarining ko‘zlaridan, ularning o‘tli so‘zlaridan qidira boshladi. U Hamid Olimjonni talabchan ustoz, sevimli yor, mehribon ota sifatida o‘z yonida yashayotganligiga hech ham shubha qilmadi. “Garchi ustoz Hamid Olimjon bo‘lmasada, endi men satrlaringa uning nigohi bilan qarayman”, - der ekan, Hamid Olimjon bilan uning ijodiy saboqlari davom etardi.



Zulfiya va Hamid Olimjon o'rtasidagi muhabbat va do'stlik, ijodiy hamkorlik adabiyot sohasidagi mushtarak intilishlar ularning o'zaro his-tuyg'ularini, to'ldirdi va boyitdi.

Zulfiya iste'dodli shoira bo'lsada, u baribir ona edi. U farzandlarining tarbiyasi bilan shug'ullanar, ularga ham ota, ham onalik qilar edi. Zulfiya yashadi. Yashaganda ham umrini xalqimiz uchun farzandlari va Hamid Olimjon uchun baxshida etdi

Seni birdan jonsiz ko'rdim,  
Jonim chiqdi mening-da.  
Es-hushimdan ajrab turdim,  
Tuyg'um ketti seningda.

Ajal degan beshafqatga,  
Koshki otsam ishqimni.  
To'ldirsam ham ko'kni dodga,  
Saqlasam men baxtimni.

Baxtini saqlashga, o'z yorini asrash uchun hamma narsaga tayyor inson edi. Zulfiyaning she'rlarida biz Hamid Olimjon aksini ko'ramizki, balki shu bilan Zulfiya she'rlari tiniq nurdir.

Shodlik so'zin aytib ulgurmay,  
O'tib ketti bu visol dami.  
Lekin dilda ikki yoniq nay  
Kuylar edi sevgi bayramin.

Hamid Olimjon Zulfiyaning yonida yo'q bo'lsada, lekin u uchun mavjud edi. U shoira qalbining posponi edi. Zulfiya she'rlari orqali o'z baxt kuychisini yaqqol gavdalantiradi va bu ishning uddasidan ham chiqdi. Shoira umrining oxiriga qadar Hamid Olimjon bilan qalban bo'lsada birga yashadi. U hamma vaqt quyoshning ilk ertalabki nurlarida, bahorning mayin shabadasida, yangi ko'kargan yalpiz hidida, atirgul jamolida, kunning ruxsorida, tunning salobatida Hamid Olimjonini ko'raverdi. U Zulfiyaning sirdoshi va darddoshi bo'lib qolaverdi.

Hijroning qalbimda, sozing qo'limda,  
Hayotni kuylayman chekinar alam.  
Tunlar tushimdasan, kunduz yonimda



Men hayot ekanman, hayotsan sen ham.

Hamid Olimjon Zulfiya uchun doimo tirik edi. U o'z yoriga bo'lgan muhabbatini alanga oldirsa, oldirdiki, lekin hech ham susaytirmadi. U muhabbat shunday yonar ediki, uning alangasiga baland tog'lar ham, haybatli daryolar ham bardosh bera olmas edi. *"Sevgi desam, faqat sen desam"*, *"Kuyaman-u bo'lmayman ado"*, *"Men hayot ekanman, hayotsan sen ham"*, - deb quylaydi:

Deydilarki seni ko'rganda,  
Ko'zlarimda yonar jonli o't.  
O'sha o'tning yolqinlarida,  
Sendan o'zga bor narsa unut.

Ishq ko'zda, so'zda yashaydi deganlari rost, ko'zlarning yonishidan biz muhabbatni, vafoni ko'rishimiz mumkin ekan.

Zulfiya she'riyatini biz to'g'ridan-to'g'ri vafo timsoli desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Balki shundan bo'lsa kerakdirki, uning she'rlari avloddan-avlodga meros bo'lib o'tib kelmoqda, qalblarda yashamoqda. Zulfiya qalbida shunday muhabbatni, shunday vafoni va irodani tarbiyaladiki, bu kun biz uni qalblardan his qilib turibmiz. Shoiri Zulfiya mana shunday buyuk kuchga, vafo kuchiga, sadoqat-u ishonch kuchiga ega bo'lgan hassos va betakror shoiradir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Жабборов Н. Замон. Мезон. Шеърият. -Т., Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015.
2. Умуров Ҳ. Қўш қанот сеҳри. Т., Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1982.
3. Зулфия. Асарлар. 3-жилд. Камалак. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986.